



Published on *Xalq Banki* (<http://xb.uz>)

Aksiyadorlik tijorat Xalq banki Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq filiali yangi binoda ish boshladi

Ko'rildi: 526

Yangilangan sana: Tue, May, 15, 2018



Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan joriy yilning 23 mart kuni "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror imzolangan edi.

Ushbu qarorda aholi va tadbirkorlarga bank xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha bir qator qulayliklar yaratish belgilangan. Jumladan, **2018 yil 1 iyuldan boshlab tijorat banklariga mijozlar** dastlabki ruxsatlarsiz va shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarsiz kirishi va bank xizmatlaridan foydalanishlari mumkin bo'ladi.

Aksiyadorlik tijorat Xalq banki aholiga bank xizmatlarini ko'rsatish sifatini oshirish va mijozlarga qulayliklar yaratish maqsadida, so'nggi yillarda respublikadagi mavjud tuman va shahar filiallarini zamonaviy qiyofada, to'liq qayta ta'mirlab, foydalanishga topshirib kelmoqda.

Buning amaliy isboti sifatida yaqinda Xalq bankining Toshkent shahar, Chilonzor filiali zamon talablari darajasida to'liq ta'mirdan chiqarilib, foydalanishga topshirilgan bo'lsa, bugun Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq filiali ana shunday zamonaviy qiyofa kasb etdi.

To'liq yangidan qad rostlagan bank binosi qo'rilishiga 2,8 milliard so'm mablag' sarflandi. Zamonaviy bino to'liq yangi mebel jihozlari bilan ta'minlandi.

Binoga kiraverishdagi militsiya posti o'rniga, mijozlarga maslahat beruvchi **Reception** xizmati tashkil etilgan. Bu yerda bank mutaxassisi mijozlarga maslahatlar, savollariga javoblar beradi. Bir so'z bilan aytganda ortiqcha ovoragarchiliklarga chek qo'yiladi.

Shuningdek, bankda tadbirkorlar uchun alohida, jismoniy shaxslar uchun alohida xizmat ko'rsatish joylari tashkil etilgan.

Ma'lumot uchun aytish mumkinki, bugungi kunda Xalq banki Yuqori Chirchiq filiali tomonidan 400 dan ortiq mijozga, 14 ming nafardan ortiq pensionerga sifatli bank xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda. Shuningdek, 500 dan ortiq fuqaroning 244,3 mln. so'mlik omonatlari jalb eqilingan.

E'tiborlisi, ushbu filial mijozlarining yarmidan ko'pi bank xizmatlaridan masofadan turib foydalanishadi. Ya'ni, mijoz o'z hisob varag'i bo'yicha amallarni bankka bormasdan, xohlagan joyda turib, istagan vaqtda internet orqali bajarishi, hisob varag'idagi mablag'larni o'tkazish, ularning holati, mablag'ning kelib tushishi, to'lovlarning aks etishiga doir ma'lumotlarni olishi mumkin.

Shuningdek, filialning kredit portfeli 8.4 mlrd. so'mni tashkil etib, joriy yil boshidan buyon 34 ta mijozga 1,6 mlrd. so'm kredit mablag'lari ajratilgan. Shundan xalqaro moliya institutlarining kredit mablag'lari hisobidan 1 loyiha bo'yicha 900 mln. so'm nasli chorvaga yo'naltirilgan. Ayni paytda ham bir nechta istiqbolli loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Barcha qulayliklarga ega bo'lgan zamonaviy bank tumanimizda barpo etilgani bizni cheksiz quvontirdi,

- deydi yakka tartibdagi tadbirkor Sitora Mirolimova. - Bank binosining ichiga kirib ko'rdim, judayam chiroyli va zamonaviy ta'mirlangan va jihozlangan. Bu yerga keladigan aholi va tadbirkorlar uchun yaratilgan qulayliklar, mebellar va jihozlarni ko'rib yanayam xursand bo'ldim. Bunday qulayliklar uchun bank rahbariyatiga, mutasaddilariga mijozlar nomidan minnatdorchilik bildiraman.

Yurtimizda Xalq banki tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida mijozlar uchun qo'shimcha qulayliklar yaratish maqsadi yotibdi. Foydalanishga topshirilayotgan mazkur filialning zamonaviy qiyofa kasb etishi aholiga va mijozlarga yanada sifatli bank xizmatlari ko'rsatish imkoniyatini yaratmoqda.

Bank axborot xizmati
